

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI SINFDAN TASHQARI ISHLAR
VOSITASIDA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH
TEXNOLOGIYASI**

Umirova Mohinur Mirzo qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim
yo ‘nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini sinfdan tashqari ishlar vositasida tarbiyalash xususida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim, kitobxonlik, to‘garak, sport, hunarmandchilik, shaxs, qobiliyat, kreativlik, tafakkur, ijodkorlik.*

KIRISH

Yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning zamirida kelajak umidi, vatan ertasi bo‘lgan yoshlarni komil shaxs etib tarbiyalash vazifasi yotadi. Yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalab voyaga yetkazishda barcha ta’lim muassasalarini va pedagog xodimlarning o‘rni beqiyosdir. Har bir o‘sib kelayotgan yosh avlod eng muhim va zarur bilimlarni boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘zlashtiradi. Shunday ekan ushbu muhim jarayonga har bir pedagog mas’uliyat bilan yondashmog‘i lozim. Yoshlarni vatanga muhabbat, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashda, oila va jamiyat a’zolarining ahamiyati katta hisoblanadi. Barcha ta’lim muassasalarida yoshlarni sifatlari va puxta bilim egallashlari uchun ko‘plab o‘zgarishlar va yangiliklar olib borilmoqda. Yoshlarni bo‘sh vaqtlarini samarali va mazmunli tashkil etish bilan bir qatorda, ularni kelajakda o‘z kasbining mukammal mutaxassisni sifatida faoliyat olib borishlari uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Chunki vatanni yuksalishi va ravnaq topishida yoshlarning salohiyati va intellektual qobiliyatlarini juda katta ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev o‘z nutqlarining birida yoshlarning ta’lim-tarbiyasi xususida quyidagi fikrlarni ta’kidlaydilar. “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlarni. Mayli yoshlarni o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin yni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz degan da’vat ularning qalbida doim aks-sado berib o‘zligiga sodiq qolishiga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Tadqiqot jarayonida mavzuga oid ko‘plab ilmiy-uslubiy qo‘llanmalar va adabiyotlardan foydalanildi.

MUHOKAMA

Har bir sinf rahbar faoliyatida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish muhim jarayon hisoblanadi. Chunki yoshlarni bo'sh vaqtlarini samarali va kerakli mashg'ulotlar bilan qamrab olish orqali o'quvchilarni turli zararli va yot g'oyalardan muhofaza qilishga erishish mumkin. Sinfdan tashqari ishlarga turli fan to'garaklari, hunarmandchilik, sport to'garaklari, kitobxonlik kechalari va boshqalarni keltirish o'rniidir. Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarni jalg etish uchun har bir pedagog ularning istak-xohishlarini inobatga olishi zarur. Sinfdan tashqari ishlar vositasida o'quvchilarni bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish va shu bilan bir qatorda o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllanishida muhim omil vazifasini o'taydi. Masalan o'quvchilar sinfdan tashqari tashkil etiladi gan turli to'garak va badiiy-adabiy kechalarda ishtirok etish orqali, ularda yuksak darajadagi ma'naviy ongni shakllantirishga erishish mumkin. Birgina kitobxonlik kechalarini tashkil etish orqali ham o'quvchi yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga erishiladi. Zero, ko'p kitob mutolaasi bilan shug'ullanadigan yoshlardan teran aql, yuksak darajadagi tafakkur egalari yetishib chiqadi.

Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilardagi bir qator ijobiy xislatlarni shakllantirishda beqiyos o'ringa ega. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarda tashabbuskorlik, ijodkorlik va shu bilan bir qatorda bir qancha qobiliyatlarni shakllantiradi. O'quvchilar sinfdan tashqari ishlar vositasida jamoada ishlash ko'nikmasini ham egallaydilar. O'zlaridagi liderlik qobiliyatini shakllantirishga muvofiq bo'ladilar. Bundan ko'rinish turibdiki, sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda har bir pedagog o'zidagi bor mahoratini qo'llagan holda ushbu jarayonga mas'uliyat bilan yondashmog'i talab etiladi. Sinfdan tashqari ishlarni ta'lim, madaniyat, sport, hunarmandchilik va boshqa sohalarda ham tashkil etish mumkin. Bunda sinf jamoasidagi har bir o'quvchini istak-xohishlari, qiziqishlari inobatga olinadi. Sinfdagagi bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ham sinfdan tashqari ishlarga jalg etish orqali, ularning salohiyatini o'stirishga va shu bilan bir qatorda o'zlariga bo'lgan ishonch hissini shakllantirishga erishish mumkin. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchi yoshlarni milliy tarbiya asosida kamol topishida yetakchi vosita bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilarda vatanga, oilaga, jamiyatga bo'lgan mehr hissini shakllantirish kelgusida ularni komil inson bo'lib voyaga yetishlariga zamin yaratadi. Sinfdan tashqari ishlar vositasida o'quvchilarda mehnatga bo'lgan ongli munosabatni ham shakllantirishga erishish mumkin. Ayniqsa boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari ishlarni tizimli tashkil etish muhimdir. Chunki ushbu davrda o'quvchilar asosiy va zarur bilimlarni o'zlashtiradilar va bu o'z navbatida olingan bilim, ko'nikma, malakalar esa ularning kelgusidagi faoliyatlarida tayanch vazifasini o'taydi. Bolaga uning dastlabki davrlaridan yaxshi ta'lim-tarbiya berish orqali uning kelajakda yetuk shaxs bo'lib kamol topishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Bir so'z bilan aytganda sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni faollikka, tinimsiz mehnat qilishga, doimiy harakat qilishga undaydi. O'quvchilarni bo'sh vaqtлari samarali tashkil

etilsa, turli xildagi yot g‘oyalardan ularni tafakkurini saqlashga erishishimiz mumkin. Sinfdan tashqari ishlarni noodatiy, kreativ, va zamonaviy talqinda tashkil etish o‘quvchilarni salohiyatini yanada oshiradi. Har tomonlama yetuk, aqliy salohiyati yuqori yoshlar yurtning ertasi, kelajak umidi demakdir. Yoshlarimizning ta’lim-tarbiya olishida har bir pedagog rahbarlarning o‘rni beqiyosdir. Sifatli berilgan ta’lim va milliy tarbiyamiz asosida yoshlarimizni kelajakda komil inson qilib voyaga yetkazish vazifasi yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qorayev Samaridin, Janbayeva Marjan “Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning zamonaviy tamoyillari” Pedagogika ta’lim klasteri: muammo va yechim;
2. Saidova Gavhar, “Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish” monografiya;
3. Sarbarova M., “Boshlang‘ich ta’limda sinfdan tashqari darslarni tashkil etish metodikasi va ularning ahamiyati”;
4. Xayrullayeva D., “Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi”;
5. www.ziyonet.uz ta’lim portali.